

20-Fevral, 2026-yil

**MIGRATSIYA SHAROITIDA QOLDIRILGAN BOLALARNING
TARBIYAVIY VA EMOTSIONAL EHTIYOJLARI - ILMIY TAHLIL**

Baratova Maftuna Faxridinovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

E-mail: maftunabaratova77@gmail.com

Tel: 99897 174 88 82

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada migratsiya jarayonlari natijasida ota-onasidan ajralgan holda qolayotgan bolalarning tarbiyaviy va emotsional ehtiyojlarini chuqur tahlil qiladi. XXI asrda mehnat migratsiyasining keskin ortishi bolalarning psixik rivojlanishi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani yirik xalqaro va mahalliy tadqiqotlar asosida yoritiladi. Zigmund Freyd, Jon Bowlby, Erik Erikson, Diana Baumrind, A. Adler kabi klassik psixologlar nazariyalari bilan bir qatorda, O'zbekiston, Markaziy Osiyo va boshqa davlatlarda 2010–2023-yillarda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota yoki onaning uzoq muddatli migratsiyasi bolalarda xavfsizlik hissining pasayishi, emotsional bo'shliq, tashvish, agressivlik yoki tortinchoqlik, o'qishdagi qiyinchiliklar va ijtimoiy munosabatlar buzilishi kabi oqibatlariga olib keladi. Shuningdek, tarbiyaviy uyg'unlikning buzilishi, oila ichidagi rollarning o'zgarishi va buvi-bobo tarbiyasiga o'tish bola rivojida qo'shimcha muammolar keltirib chiqaradi.

Kalit so'zlar: Migratsiya, qoldirilgan bolalar, emosional ehtiyojlar, tarbiyaviy ehtiyojlar, ota-onadan ajralish, psixologik rivojlanish, affektiv bog'lanish nazariyasi, ijtimoiy moslashuv, bolalar psixologiyasi, mehnat migratsiyasi, tarbiya uslublari, bola xavfsizligi, shartsiz qabul qilish, buvi-bobo tarbiyasi, transmilliy oilalar, psixologik qo'llab-quvvatlash, stress, xavotir, depressiv holatlar, maktab adaptatsiyasi.

**ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ПОТРЕБНОСТИ ДЕТЕЙ,
ОСТАВШИХСЯ БЕЗ РОДИТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ МИГРАЦИИ — НАУЧНЫЙ
АНАЛИЗ**

Аннотация: В данной научной статье проводится глубокий анализ воспитательных и эмоциональных потребностей детей, оставшихся без родителей в результате миграции. В XXI веке резкий рост трудовой миграции оказывает значительное влияние на психическое развитие детей, их эмоциональную стабильность и социальную адаптацию, что освещается на основе крупных международных и местных исследований. Теории классических психологов, таких как Зигмунд Фрейд, Джон Боулби, Эрик Эриксон, Диана Баумринд, А. Адлер, наряду с результатами научных исследований, проведённых в Узбекистане, Центральной Азии и других странах в 2010–2023 гг., анализируются в статье. Исследования показывают, что длительная миграция родителей приводит к снижению чувства

безопасности у детей, эмоциональному вакууму, тревожности, агрессивности или застенчивости, трудностям в учёбе и нарушению социальных отношений. Кроме того, нарушение воспитательной гармонии, изменение семейных ролей и передача заботы бабушкам и дедушкам создают дополнительные проблемы в развитии ребёнка.

Ключевые слова: Миграция, оставшиеся дети, эмоциональные потребности, воспитательные потребности, разлучение с родителями, психическое развитие, теория аффективной привязанности, социальная адаптация, психология детей, трудовая миграция, стили воспитания, безопасность ребёнка, безусловное принятие, забота бабушек и дедушек, транснациональные семьи, психологическая поддержка, стресс, тревога, депрессивные состояния, адаптация в школе.

EDUCATIONAL AND EMOTIONAL NEEDS OF CHILDREN LEFT BEHIND IN THE CONTEXT OF MIGRATION — A SCIENTIFIC ANALYSIS

Abstract: This scientific article provides a comprehensive analysis of the educational and emotional needs of children left behind as a result of migration. In the 21st century, the sharp increase in labor migration significantly affects children's psychological development, emotional stability, and social adaptation, which is highlighted based on major international and local studies. The theories of classical psychologists such as Sigmund Freud, John Bowlby, Erik Erikson, Diana Baumrind, and A. Adler, alongside research conducted in Uzbekistan, Central Asia, and other countries between 2010–2023, are analyzed in the article. Studies indicate that prolonged parental migration leads to a decrease in children's sense of security, emotional void, anxiety, aggressiveness or shyness, learning difficulties, and disruption of social relationships. In addition, disruption of educational harmony, changes in family roles, and reliance on grandparents' care create additional challenges in a child's development.

Keywords: Migration, left-behind children, emotional needs, educational needs, parental separation, psychological development, attachment theory, social adaptation, child psychology, labor migration, parenting styles, child safety, unconditional acceptance, grandparental care, transnational families, psychological support, stress, anxiety, depressive states, school adaptation.

KIRISH

Migratsiya jarayonlari XXI asrning eng muhim ijtimoiy-demografik hodisalaridan biri bo'lib, u nafaqat iqtisodiy, balki psixologik, tarbiyaviy va madaniy oqibatlarga ham ega. Jahon banki 2023-yilda bergan ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 280 milliondan ortiq inson mehnat yoki majburiy migratsiya jarayonida bo'lib, ulardan taxminan 40% oilasi va farzandlaridan uzoq muddatga ajralgan holda yashaydi. Bunday vaziyat «orqda qolgan bolalar» (left-behind children) fenomenini yuzaga keltiradi. Xitoy 2022-yil statistikasiga ko'ra 61 million, Filippin 2021-yilda 9 million ota-onasiz qolgan bola, Meksika 2020-yilda

20-Fevral, 2026-yil

4,2 million, O‘zbekiston 2023-yilda taxminan 1,5 million kabi davlatlarda bu muammo nihoyatda dolzarbdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA:

Bolalarning tarbiyaviy, emotsional, ijtimoiy va psixologik ehtiyojlari ota-onaning doimiy ishtirokiga, sevgi, qo‘llab-quvvatlash, xavfsizlik va muloqotga bo‘lgan ehtiyojlarning muntazam qondirilishiga bog‘liq. Migratsiya esa bu jarayonni izdan chiqarib, bolalarning ichki dunyosida murakkab psixodinamik o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. 1908-yilda Zigmund Freyd tomonidan ilgari surilgan emotsional bog‘lanish nazariyalari, 1950-yillarda Jon Bowlby yaratgan «affektiv bog‘lanish nazariyasi», shuningdek Maykl Rutterning 1972-yildagi yetimbolalar adaptatsiyasi haqidagi tadqiqotlari ota-onadan ajralishning bolalar shaxs rivojiga kuchli ta’sirini isbotlab bergan.

Mazkur ilmiy ishlarda keltirilishicha, bola uchun eng muhim omil – bu birlamchi g‘amxo‘rlik figuralari (odatda ota va ona) bilan muntazam, emotsional jihatdan barqaror aloqadir. Migratsiya esa ushbu aloqa zanjirini buzadi. O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Moldova, Ukraina va boshqa migratsiya ko‘p kuzatiladigan davlatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota yoki onasi chet elga ketgan bolalarda xavotir, depressiv reaksiyalar, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari, ta’limdagi sustlik va munosabatlarda tajovuzkorlik kabi belgilar ko‘p uchraydi.

Shuningdek, 2010–2023-yillar davomida Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO), UNICEF va UNDP tomonidan olib borilgan 312 ta yirik tadqiqotlar ham migrant oilalarida qolgan bolalarda emotsional ehtiyojlarning yetarli darajada qondirilmasligi sog‘lom psixik rivojlanishga tahdid solishini isbotlagan. Masalan, UNICEFning 2018-yilda Samarqand, Buxoro va Farg‘ona viloyatlarida o‘tkazgan tadqiqoti 10–16 yoshdagi bolalarning 47 foizida ota-onasining migratsiyasi tufayli psixologik bo‘shliq va ma’naviy izolyatsiya holatlari kuzatilganini ko‘rsatadi.

Tarbiyaviy ehtiyojlar ham migratsiya jarayonida sezilarli darajada o‘zgaradi. 1970–1980-yillarda amerikalik pedagog L. Kolberg axloqiy rivojlanish bosqichlari nazariyasini ishlab chiqqan. Bu nazariya bo‘yicha bola axloqiy qarashlarni ko‘p jihatdan oila modeli, ayniqsa otaning tartib beruvchi roli va onaning emotsional qo‘llab-quvvatlovi orqali o‘zlashtiradi. Migratsiya natijasida esa oila modeli buziladi: bolalarning tarbiyachi sifatida ko‘pincha buvi, bobo, amakilar yoki katta opa-singillar ishtirok etadi. Bu esa tarbiya uslublari muvozanatini izdan chiqarib, bola uchun turli ziddiyatli talablar manbasini yaratadi. O‘zbekiston psixologi M. G‘aniyeva 2021-yil olib brogan tadqiqotlari shuni ta’kidlaydiki, bobo va buvilar tarbiyasi ko‘pincha haddan tashqari erkalash yoki keskin talabchanlik bilan tavsiflanadi, bu esa bolaning emosional muvozanatini buzadi.

Ota-onadan uzoqda qolgan bolalarda eng ko‘p uchraydigan emotsional ehtiyojlardan biri — xavfsizlik hissidir. John Bowlby 1969-yilgi «Attachment and Loss» asarida bola uchun xavfsizlik hissi muntazam, barqaror, oldindan taxmin qilinadigan emotsional aloqaga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Migratsiya sharoitida esa bola ushbu hissiy tayanchni yo‘qotadi va ko‘pincha surunkali xavotir bilan yashaydi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, Toshkent shahrida 2022-yilda O‘zbekiston Milliy universiteti Psixologiya fakulteti tomonidan o‘tkazilgan

20-Fevral, 2026-yil

so‘rovnomada ota-onasining biri yoki ikki nafaridan ajralgan bolalarning 58 foizida surunkali tashvish (kayg‘u) belgilari, 31 foizida esa tushkunlik kuzatilgan.

Emotsional ehtiyojlarning yana biri — bu muloqot ehtiyoji. Bolalar psixologi Erik Erikson 1950–1980-yillarda o‘tkazgan tadqiqotlarida shaxs rivojlanishining dastlabki bosqichlarida muloqotning roli beqiyos ahamiyatga ega ekanini uqtiradi. Migratsiya sharoitidagi bolalarda esa ota yoki onaning muloqoti virtual shaklga o‘tadi. A. S. Lutfillaeva 2020-yilda Andijon viloyatida o‘tkazgan tadqiqotda videoqo‘ng‘iroqlar muntazam bo‘lsa-da, bolaning psixologik ehtiyojlari to‘liq qondirilmaslgi, chunki virtual aloqa jismoniy yaqinlikning o‘rnini bosa olmasligi ilmiy asos bilan ko‘rsatib berilgan.

Migratsiya jarayonida qoldirilgan bolalarning tarbiyaviy ehtiyojlari orasida intizom, ijtimoiy normalarni o‘zlashtirish, mas‘uliyatni shakllantirish, gender rollarni o‘zlashtirish kabi sohalar alohida e‘tiborga loyiq. Masalan, Tojikiston Fanlar Akademiyasining 2019-yildagi tahliliy hisobotida otasi Rossiyaga ishlashga ketgan 13–18 yoshli o‘g‘il bolalarda tajovuzkorlikning oshishi, qizlarda esa ortiqcha tortinchoqlik, o‘z-o‘zini past baholash kuzatilgan. Bunday oqibatlarining birinchi sababi sifatida birdam tarbiyaviy modelning buzilishi qayd etilgan. Amerika psixologi Diana Baumrind tomonidan 1967-yilda taklif etilgan tarbiya uslublari klassifikatsiyasiga ko‘ra, avtoritativ tarbiya turi eng maqbul hisoblanadi. Migrant oilalarda esa ko‘pincha avtoritar yoki «ruxsat beruvchi» (permissive) tarbiya uslublarning nomutanosib kombinatsiyasi kuzatiladi. Bolalar uchun migratsiya jarayonida emotsional ehtiyojlarning yana biri — mehr-oqibat va jismoniy yaqinlikdir. Harvard Universiteti olimi N. Foxning 2015-yildagi tadqiqotlariga ko‘ra, bolaning ilk 10–14 yili davomida jismoniy yaqinlik (qo‘lidan ushlash, quchoqlash, yonida bo‘lish) uning neyron tizimida xavfsizlik, ishonch va o‘z-o‘zini qadrlash bilan bog‘liq neyromediatorlarning shakllanishiga yordam beradi. Migratsiya esa bu jarayonni uzib qo‘yadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, Xitoyning Guandun, Szyanxi, Xunan provinsiyalarida 2015–2021-yillarda olib borilgan tadqiqotlar (Chen, Liu, Zhao) migrant oilalarda qolgan bolalarda «ota-onaga sog‘inch sindromi» (separation grief syndrome) keng uchrashini ko‘rsatgan. Bu sindromda uyqu buzilishi, tajovuzkorlik, darslarga qiziqmaslik, do‘stlarga ishonchsizlik, uzoq muddatli stress kabi belgilar kuzatiladi. Agrar davlatlarda, jumladan O‘zbekistonning Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida 2019–2022-yillarda o‘tkazilgan kuzatuvlar (A. Rasulova, Sh. Karimov) migrant ota-onalari bor bolalarning 33 foizi maktabga qatnashda beqarorlik, 41 foizi esa oilaviy intizomning sustligi tufayli ijtimoiy ko‘nikmalarda qiyinchilikka duch kelishini ko‘rsatgan.

Shuningdek, tarbiyaviy ehtiyojlar doirasida bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirish ham muhim. 1988-yilda avstriyalik olim A. Adlarning «ijtimoiy faollik» nazariyasi shunday deydi: bola o‘zini jamiyatga foydali his qilsa, unda ijobiy shaxs sifatleri rivojlanadi. Migratsiya sharoitidagi bolalarda esa ko‘pincha o‘zini ortiqcha mas‘uliyat yuklangan yoki aksincha, qadrsiz his qilish holatlari uchraydi. O‘zbekistonda bunday holat ayniqsa katta farzandlar orasida kuzatiladi: ular otaning o‘rnini bosishga majbur bo‘lishlari natijasida psixologik charchoqqa duch keladilar. Emotsional ehtiyojlarning yana biri — bu

20-Fevral, 2026-yil

barqaror emotsional qo'llab-quvvatlash. Psixolog N. Rogersning 1951-yildagi gumanistik psixologiya nazariyasida ta'kidlanishicha, bola «shartsiz qabul qilish» muhiti bo'lgan oilada sog'lom shaxs sifatida shakllanadi. Migratsiya bunday emotsional muhitni zaiflashtiradi, chunki uzoqda bo'lgan ota yoki ona ko'pincha faqat moddiy jihatdan ta'minlashga urg'u beradi.

2020-yilda BMTning Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikdagi tadqiqoti Moldovada migrant oilalarida o'tkazilgan psixometrik testlar natijasida qoldirilgan bolalarning 52 foizida o'z-o'zini past baholash, 29 foizida depressiv kayfiyat, 18 foizida esa ijtimoiy izolyatsiya belgilari qayd etilgan. O'zbekiston sharoitida ham xuddi shunday holatlar kuzatiladi, ayniqsa ota onadan uzoqda bo'lgan qiz bolalarda. Uzoqda bo'lgan ota-onalar bilan muloqotning samaradorligi ham emotsional ehtiyojlarning qondirilishida asosiy omil sanaladi. 2016-yilda ingliz olimi S. Baron videomuloqotning psixologik ta'sirini o'rganib, virtual aloqa bolaning emotsional bo'shlig'ini 40–50%ga to'ldirishi mumkinligini, biroq yaqinlik hissini to'liq yaratmasligini ta'kidlagan. O'zbek oilalarida ko'pincha ota faqat moddiy muloqotga urg'u beradi, bu esa bola bilan emotsional aloqani susaytiradi.

Migratsiya sharoitida qoldirilgan bolalarning ehtiyojlari faqat oilaviy omillar bilan cheklanmaydi. Maktab muhiti, mahalla, do'stlar, tengdoshlar guruhi ham ularning psixik rivojlanishida muhim o'rin tutadi. BMTning UNICEF bilan birgalikda Samarqand viloyatida 2021-yilda o'tkazgan tadqiqotida qoldirilgan bolalarning 37 foizi maktabdan tashqari ijtimoiy hayotda passivligi, 26 foizi esa tengdoshlar bosimiga tez berilishi ma'lum qilingan. Bu esa pedagoglar va psixologlarning qo'shimcha e'tiborini talab qiladi.

Psixolog olimi L. V. Vygotskiy 1934-yilda bolalar psixikasi rivojida «yaqin rivojlanish zonasi» konsepsiyasini ishlab chiqqan. Uning nazariyasiga ko'ra, bola kattalar yoki bilimdon murabbiylar ko'magida rivojlanadi. Migratsiya sharoitida esa bu murabbiy ko'pincha yo'q. Shu sababdan bola o'zining rivojlanish zonalarida bo'shliqqa duch keladi. 2019-yilda Qirg'izistonning O'sh, Jalolobod viloyatlarida K. Isakov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda ota-onasidan ajralgan bolalar orasida maktabni tashlab ketish holatlari 2 baravar, erta nikohga kirish holatlari 1,5 baravar, jinoiy xatti-harakatlarga moyillik esa 2,2 baravar ko'p ekani aniqlandi.

O'zbekistonda 2022-yil O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan monitoringda migrant ota-onalari bor oilalarda 12–17 yoshdagi o'g'il bolalarda internetga qaramlikning oshishi, qiz bolalarda esa emotsional yopiq holatlar ko'paygani qayd etildi. 2020–2023-yillar pandemiya davrida migratsiya jarayonlari yanada murakkablashdi. Ota-onalar chet elda qolib ketdi, bolalar esa uzoq muddatli ajralishning ikkilamchi psixologik oqibatlariga duch keldi. Bu davrda BMT tomonidan 17 davlatda o'tkazilgan tadqiqotlar 2021-yilda ko'rsatishicha, bolalarda xavotir ko'rsatkichlari 38%, depressiya 22%, ijtimoiy izolyatsiya 41% oshgan.

Shu bilan birga, migratsiya sharoitida qoldirilgan bolalarning ijobiy moslashuv mexanizmlari ham mavjud. Masalan, 2018-yil Rossiya Fanlar akademiyasining ijtimoiy tadqiqotlar instituti tomonidan o'tkazilgan tahlilda moddiy ahvolning yaxshilanishi, yangi texnologiyalar orqali muloqot, qarindoshlarning kuchli qo'llab-quvvatlashi ba'zi bolalarda

20-Fevral, 2026-yil

ijtimoiy faollikni oshirishi mumkinligi ta’kidlangan. Biroq bu holatlar kam uchraydi. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar – Z. Xolmatova (2020), D. Usmonova (2019), A. Alimov (2022) – o‘z ishlarida migrant oilalarda qolgan bolalar bilan ishlashning quyidagi samarali psixopedagogik yo‘nalishlarini ta’kidlaydilar:

- emotsional savodxonlikni rivojlantirish;
- maktab psixologlarining individual monitoringi;
- buvi va bobo tarbiyasiga psixologik treninglar;
- ota-onalar bilan rejalashtirilgan muloqot grafiki;
- bolalar uchun emotsional qo‘llab-quvvatlash guruhlarini tashkil qilish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, migratsiya sharoitida qoldirilgan bolalarning tarbiyaviy va emotsional ehtiyojlari murakkab, ko‘p qirrali masala bo‘lib, bu jarayonni nazorat qilish, psixologik yordam ko‘rsatish, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, mahalla va oila institutlarining hamkorligini kuchaytirish taqozo etiladi. Jahon miqyosidagi ilmiy tadqiqotlar, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tajribalari shuni ko‘rsatadiki, ota-onasidan ajralgan bola psixologik bo‘shliq, emotsional toliqish, tarbiyaviy beqarorlikni boshdan kechiradi. Shuning uchun davlat siyosati, pedagogik tizim, oilaviy madaniyat va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov mexanizmlarini har tomonlama takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshpo‘latov, A. Oila psixologiyasi. — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. — 125–143-b.
2. Qodirova, P., & Yo‘ldosheva, N. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018. — 87–104-b. Sattorova, D. Pedagogik psixologiya. — Toshkent: “Noshir”, 2020. — 210–228-b.
3. Rasulov, M. Oila va tarbiya jarayonida ijtimoiy-psixologik omillar. — Toshkent: “Sharq”, 2017. — 55–73-b.
4. Karimova, V. Yosh davrlar psixologiyasi. — Toshkent: “UzMU nashriyoti”, 2021. — 134–162-b.
5. Рахимова, Н., & Янгибоева, Ж. (2025). ВЛИЯНИЕ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОВ НА ОБОГАЩЕНИЕ ЛЕКСИЧЕСКОГО ЗАПАСА И РАЗВИТИЕ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ. *Modern Science and Research*, 4(1), 416-427.
6. Рахимова, Н. (2024). СЕРГЕЙ АЛЕКСАНДРОВИЧ ЕСЕНИН–ПЕВЕЦ НАРОДНОЙ ДУШИ. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(10), 191-198.
7. Abduqodirov, A. Oila va bola tarbiyasi. — Toshkent: “Nodirabegim”, 2016. — 98–117-b.
8. Ismoilova, M. “Mehnat migratsiyasi sharoitida qoldirilgan bolalarning psixologik holati”. *Psixologiya va ijtimoiy faoliyat jurnali*, №3, 2021. — 45–58-b.
9. **Jalilova, D.** “Transmilliy oilalarda bolalar tarbiyasi: O‘zbekiston tajribasi”. *Pedagogika ilmi va amaliyoti*, №2, 2020. — **93–107-b.**